

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 11

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 11 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳақимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Kucharov Jamshid Qulnazarovich*
ROSSIYANING PAXTA YETISHTIRISH BORASIDAGI SINOV-TAJRIBALARI XUSUSIDA AYRIM
MULOHAZALAR (TURKISTON TO'PLAMI MATERIALLARI ASOSIDA) 11-14
- Taʼbaev Amirbek Ashirbaevich*
Б.Х.КАРМИШЕВА АСАРЛАРИДА “ИЛК ҚАБИЛАЛАР”ГА ОИД ЭТНОНИМЛАР
МАСАЛАСИ 15-23
- Ҳамаев Нодирбек Мўминович*
ТУРКИСТОНДА ИСТИҚЛОЛ УЧУН КУРАШНИНГ РИВОЖЛАНИБ БОРИШИ ВА УНИНГ
МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ (1920-1924) 24-32
- Tilavova Shahnoza Salohitdinovna*
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA JADIDLARNING
FAOLIYATI 33-36
- Қозоқов Тоҳиржон Қодиралиевич*
НАМАНГАНДА ҚОЗИЛАР ВА СУДЛАР ТАРИХИ 37-42
- Артикбаев Ойбек Салимахамаатович*
ЎЗБЕК-ҚОЗОҚ ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИНИНГ ОИЛАВИЙ УРФ-ОДАТ ВА
МАРОСИМЛАРДА НАМОЁН БЎЛИШИ (XX АСР ТОШКЕНТ ВОҲАСИ МИСОЛИДА) 43-56
- Atavullayeva Shaxlo Musoyevna*
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI ... 57-62

8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Қўчқаров Файзулло Абдужабборович*
ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР – АГРАР СОҲАНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ
МУҲИМ ОМИЛИ 63-70
- Shao Junling*
ANALYSIS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S REGIONAL ECONOMY .. 71-76
- Ashirov Nurmurod Qulmatovich*
RAQAMLI TECHNOLOGIYALARDAN KENG KO'LAMDA FOYDALANISHDA BANK TIZIMINI
IMKONIYATLARINI OSHIRISH YO'LLARI 77-82
- Togayev Salim Sobirovich*
BANK XIZMATLARIGA BO'LGAN ISHONCHNI OSHIRISH YOHUD MIJOSNI JALB QILISHNING
SAMARALI YO'LLARI 83-89
- Саттаров Ғанижон Озодович*
МИНТАҚА РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИДАН
ФОЙДАЛАНИШ ОМИЛЛАРИ 90-96

Yakubova Samira

LEVERAGING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS: STRATEGIES FOR OPTIMAL INVESTMENT FINANCING 97-102

Abdualiyev Hamidulla Toxirjonovich

OLIY TA'LIM MUASSASASINING INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH TIZIMIDAGI LOYIHALARNI BOSHQARISH OFISI 103-109

Egamberdiyeva Salima Rayimovna

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 110-118

Xolmamatov Diyor Haqberdievich

SANOAT KORXONALARINING BOZORDAGI MAVQEINI BAHOLASHDA SPACE TAHLIL USULIDAN FOYDALANISH 119-127

Gafurova Dilshoda

INNOVATIVE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: ASSESSING STRATEGIES AND IMPACTS 128-132

Xomidov Abdugaffor Axmadjonovich

TA'LIM SOHASIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH 133-139

Raxmonov Mirvoxid Rajabovich

NAVOIY VILOYATI ASOSIY KAPITALIGA INVESTITSIYALAR TUZILISHI VA DINAMIKASI TAHLILI 140-149

Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li

DON VA DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING XIZMATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA SNW TAHLIL USULINING O'RNI VA UNI QO'LLASH XUSUSIYATLARI 150-159

Aziza Umarova

AKSIYALARNI BIRLAMCHI OMMAVIY JOYLASHTIRISH (IPO) AMALIYOTI ORQALI MOLIYAVIY RESURSLARNI SHAKLLANTIRISHNING HORIJ TAJRIBASI 160-167

Абдуллаев Бунёд Ўткирович

СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ 168-178

Matjonov Bekjon Ravshonbekovich

SOME CHARACTERISTICS OF ENSURING FOOD SAFETY IN UZBEKISTAN 179-185

Алиматова Наргис Абдухалиловна

КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ-РАҚОБАТБАРДОШЛИК ОМИЛИ..... 186-197

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Kobulniyazova Gulchexra Toshpulatovna</i> F. NITSSHE “HAYOT FALSAFASI” KONSEPSIYASI IJTIMOY RIVOJLANISHNING IRRATSIONAL ASOSI	198-204
<i>Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich</i> INSON MOHIYATI, UNING BIOLOGIK VA IJTIMOY TABIATI	205-211
<i>Турсунов Лочин Эркинович, Хакимова Дилноза Юсуфхоновна</i> РАЗВИТИЕ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ У ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ	212-218
<i>Urinboyev Dilmurod Tura o'g'li</i> HUQUQIY FAOLLIK VA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI.....	219-225
<i>Яздонов Зикирилло Шукуруллоевич</i> АЛ-ҲАКИМ АТ-ТЕРМИЗИЙНИНГ СЎФИЁНА ҚАРАШЛАРИ ВА МАЛОМАТИЙЛИККА МУНОСАБАТИ	226-231
<i>Nabiyev Maxsud Abdumannonovich</i> IQTISODIY MADANIYATNING MAZMUNIVAMOHIYATI	232-238
<i>Haydaraliyev Shuhratjon</i> MARKAZIY OSIYODA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING MILLIY VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI	239-243
<i>Хамраев Сардорбек Шарафутдинович</i> ЭКОТУРИЗМ ЖАРАЁНЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ТАРИХИЙ ЭВОЛЮЦИЯСИ..	244-250
<i>Xashimov Sheraxon Jo'raxonovich</i> O'ZBEKISTONNING XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHDA MILLIY TURIZMDAGI EKOLOGIK TURIZMNING TUTGAN O'RNI	251-260
<i>Хатамова Рашида Закиржановна</i> ПАТРИОТИЗМ КАК ЭЛЕМЕНТ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ	261-266
<i>Патиев Холдор Икромович</i> ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ	267-275
<i>Ismoilova Hayitxon Maxammadjonovna</i> FARG'ONA VODIYSIDA OILA URF-ODATLARI VA QADRIYATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOY JARAYONLARDA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI	276-280
<i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i> GLOBALLASHUV VA OILA AXLOQIY MADANIYATINING O'ZARO ALOQADORLIGI	281-287
<i>Raxmankulov Farhod Raximkulovich</i> MULKDORLAR QATLAMIDA IJTIMOY MAS'ULIYAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	288-292
<i>Shirinov Anvar Qanoatovich</i> MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTINING DOLZARB MASALALARI	293-299

Xandamova Marifat Akramovna
 “OSOR AL-BOQIYA” – ABU RAYHON BERUNIY ILMIY IJODINING DURDONASI..... 300-304

Teshaboev Muhiddin Marifovich
 IJTIMOY DAVLATDA IJTIMOY ADOLATNI TA’MINLASH VA IJTIMOY INSTITUTLARNING
 MAQSADI 305-311

Karimov Rahmat Rahmonovich, Bekbayev Rauf Rustamovich
 MADANIY ANTROPOLOGIYA FANINING PREDMETI VA IJTIMOY-GUMANITAR FANLAR
 TIZIMIDAGI O’RNI 312-320

Talapov Baxriddin Alijanovich
 DEMOKRATIYA VA SHARQONA BOSHQARISHNING ETNODIFFERENSIAL
 XUSUSIYATLARI 321-326

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Ayuzmuratova Nurjamal Dastembayeva
 КАРАКАЛПАКСКИЕ ЖЕНСКИЕ ЛИЧНЫЕ ИМЕНА..... 327-332

Olga Filippova
 ADDING REDUNDANCY FUNCTIONS TO CLUSTERED IMPLEMENTATION 333-345

Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi
 INGLIZ TILIDAGI RIELTORLIK FAOLIYATIGA OID TERMINLARNING O’ZBEK TILI O’ZLASHISH
 MASALALARI 346-351

Narzieva Gulnoza Akbarovna
 LEKSIK BIRLIKLARDA MILLIY – MADANIY KOD IFODASI 352-357

Qodirova Mukaddas Tog’ayevna, Ibragimova So’g’diyona Ikrom qizi
 INGLIZ-O’ZBEK TILLARIDA VERBAL VA NOVERBAL MULOQOT TABULARINING
 QO’LLANILISHI 358-362

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Tўраев Сардор Абдихаким ўғли
 ИНТЕРНЕТ ТАРМОҒИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЖИНОЯТЛАРНИНГ
 ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ УМУМИЙ ЧОРАЛАРИ 363-371

Атаев Шокир Куранбаевич
 ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ
 АСОСЛАРИНИ ЯНАДА ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШ 372-377

Юсупов Илхомжон Ибодиллаевич
 ҲУҚУҚИЙ АНИҚЛИК ПРИНЦИПИНING АЙРИМ НАЗАРИЙ - ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ
 ХУСУСИДА 378-385

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Adizova Nigora Baxtiyorovna
 MUAMMOLI TA’LIM ASOSIDA BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINING DIVERGENT
 TAFAKKURINI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH 386-390

<i>Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna</i> O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURLARI TALABALARINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN ISPAN TILINI O'QITISHDA VIRTUAL REALLIKDAN FOYDALANISH	391-400
<i>Uralova Muxabbat Sanjar qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	401-406
<i>Kenjabaev Jahongir Abdisalimovich</i> METHODOLOGY FOR TEACHING ENGLISH BASED ON INTERNET RESOURCES	407-411
<i>Abdusamatov Alisher Sobirovich</i> TA'LIMNI LOYIHALASHTIRISH JARAYONIGA SEMIOTIK YONDASHUV	412-417
<i>Ibragimova Ehtiyotxon Ismailovna, Sobirova Nargiza Numonjonovna</i> TA'LIMDA NOVERBAL VOSITALARNING O'RNI	418-422
<i>Babayeva Maxfuza Abduvaitovna</i> TA'LIMDA FANLARARO BOG'LANISHNING AHAMIYATI	423-429
<i>Nazarova Zarrina Allaberdiyevna</i> MAKTAB O'QITUVCHILARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	430-435
<i>Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna</i> O'QITUVCHILARINING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SHART- SHAROITLARI	436-442
<i>Умаров Азиз Авазович</i> ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	443-447
<i>Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi</i> INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI(STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASI MISOLIDA).....	448-453
<i>Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna</i> DIVERSIFIKATSIYA TAMOYILI ASOSIDA TALABALARNING KREATIVLIGINI YUZAGA CHIQRISH METODIKASI	454-461
<i>Komilov Nodirbek Bokijonovich</i> THE IMPORTANCE OF THE HISTORY OF MEDICINE IN INCREASING THE EXCLUSIVE COMPETENCE OF FOREIGN STUDENTS	462-466
<i>Sapieva Nargiza Mamayusufovna</i> IQTIDORLI O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNI IJTIMOIY-PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH	467-478
<i>Norqobilova Rayxona Davlatovna</i> XORIJIY FANLARDAN BOLALARNING MAKTABGA TAYYORGARLIGINING DIAGNOSTIKASI	479-484

<i>Mamatkodirov Maxammadali Mamatisakovich</i> SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR UCHUN RAQAMLI VOSITALAR VA PLATFORMALARNI HAMDA O‘QITISH USULLARINI TANLASH	485-492
<i>Irgasheva Umida Raimjanovna</i> TALABALAR KASBIY NUTQ KOMPETENTSIYASINI STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	493-498
<i>Turayeva Lolaxon Yuldashevna</i> ERKIN MEXANIK TEBRANISHLARNI MAPLE DASTURIY VOSITASI YORDAMIDA O‘RGANISH VA NAMOYISH ETISH	499-505
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna</i> TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	506-510
<i>Kenjabayeva Dilafruz Abdisalimovna</i> OLIY O‘QUV YURTI SHAROITIDA ZAMONAVIY O‘QITUVCHINI TAYYORLASHNING DEONTOLOGIK KOMPONENTI	511-518
<i>Xasanova Gulnoza Raxatjanovna</i> KREDIT-MODULLI TA‘LIM TIZIMI JARAYONIDA OLIY TA‘LIM MUASSASALARI TALABALARINING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI	519-525

13.00.00- Педагогика фанлари

Babayeva Maxfuza Abduvaitovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Pedagogika” kafedrası o‘qıtuvchisi
E-mail: maxfuzabobyeva7961@gmail.com

TA'LIMDA FANLARARO BOG'LANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Har xil turdagi bilimlar tizimlari ta'sirida shakllanadigan shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishda fanlararo aloqalarning o'rni masalasi katta qiziqish uyg'otadi. Fanlararo aloqadorlik o'quvchilarning bilish faoliyatini umumiy ilmiy g'oyalar va metodlar asosida qurish imkonini beradi. Ular fan paydo bo'lishining umumiy tamoyillarini o'rganish va ochib berishning umumiy qobiliyatini shakllantiradi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, fanlararo bog'lanish, bilim, fan, faoliyat, kompetensiya, matematika, fizika.

Babaeva Mahfuza Abduvaitovna
Termez University of Economics and Service
Teacher of the Department of Pedagogy

THE IMPORTANCE OF INTER-SUBJECT COMMUNICATION IN EDUCATION

Abstract. Of great interest is the question of the role of interdisciplinary connections in the development of personal characteristics formed under the influence of various types of knowledge systems. Interdisciplinarity allows students to build their cognitive activities on the basis of general scientific ideas and methods. They form the general ability to learn and reveal the general principles of the emergence of science.

Keywords: Education, interdisciplinarity, knowledge, science, activity, competence, mathematics, physics.

Бабаева Махфуза Абдувайтовна
Термезский университет экономики и сервиса
Учитель кафедры «Педагогика»

ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДИПРЕДМЕТНОЙ СВЯЗИ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. Большой интерес представляет вопрос о роли межпредметных связей в развитии личностных характеристик, формирующихся под влиянием различных типов систем знаний. Междисциплинарность позволяет строить познавательную деятельность учащихся на основе общенаучных идей и методов. Они формируют общую способность к обучению и раскрывают общие принципы возникновения науки.

Ключевые слова: Образование, междисциплинарность, знания, наука, деятельность, компетентность, математика, физика.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I11Y2023N58>

Kirish. O'qitish jarayonida fanlararo aloqadorliklarni amalga oshirish imkoniyatlarini o'rganish – ta'lim sifatiga ma'lum bir ta'sir qiladi. Bunga asosan, boshlang'ich jarayonda yangi ma'lumotlar bilan tanishish, ularni qabul qilish, natijada hodisalarni turli jihatdan o'rganish, masalaga qaysi tomondan yondashish mumkinligini payqash va tasavvur qilish aloqadorlikni rivojlantiradi [6].

O'quv predmeti axborot strukturasi har bir elementi ta'lim mazmunidagi fanlararo aloqalar uchun obyektiv asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu esa fanlararo aloqadorlikni amalga oshirgan holda, o'quv dasturlariga “fanlararo komponentlar”ni olib kirish bilan turli darajalarni aks ettirishiga erishiladi [2].

Fanlararo aloqalar asosida o'quvchilarning malakalarini shakllantirish sohasidagi tadqiqotlar turli darajadagi umumlashtirish qobiliyatidagi harakatlarning umumiy, maxsus va individual tarkibiy qismlarining o'zaro ta'sirini aniqladi. Ko'nikma va bilimlarning subyektivligi — bu turli xil o'quv fanlaridan harakat usullarini o'tkazish va umumlashtirish jarayonida olingan funksional sifatidir. Intersubyektivlik bilim va ko'nikmalar sifatida ularning genezisini, ilmiy integratsiya jarayonida kelib chiqishini, turli fanlar chorrahasida yangi bilim va usullarning paydo bo'lishini aks ettiradi. Fanlararo ko'nikmalar-o'quvchining tegishli fanlardan bilim va ko'nikmalarni uzatish va umumlashtirish jarayonida aloqalarni o'rnatish va o'zlashtirish qobiliyati hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ta'limda fanlararo bog'lanish muammosi M.I.Aliyev, A.R.Bektenyarova, G.Yu.Vishnevskaya, R.B.Lotshteyn, A.A.Xomich va boshqalarning tadqiqotlarida yoritilgan, [8, 9, 5, 10, 14]. Olimlarning tadqiqotlarida umumiy o'rta ta'lim va oliy maktabda o'quv jarayonini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirishda fanlararo aloqadorlikning ahamiyati ko'rsatilgan.

I.G.Pestalossi atrofidagi voqelikni to'g'ri idrok etishga yordam beradigan bog'lanish to'g'risida “O'zaro bog'langan buyumlarni o'z ongiga ularning tabiatdagi haqiqiy bog'lanishida qanday bo'lsa, shunday keltirgan” [11] deb yozgan, ya'ni yuqori sinflarda bir fanning boshqasidan ajralib qolish xavfi to'g'risida fikr yuritgan.

V.G.Belinskiy o'quv fanlari o'zaro bog'lanishda o'qitilishi g'oyasini ta'kidlasa, N.G.Chernishevskiy bir fandan o'zlashtirilgan bilimlar, boshqa fanlarni o'rganishda zarurligini yoqlab chiqqan.

Demak, XIX asr oxiri — XX asrning boshlarida pedagog olimlar ta'limda, asosan maktabda fanlararo bog'lanishni zaruriy vazifa deb hisoblashgan. Shu davrning ilg'or pedagoglaridan K.D.Ushinskiy ta'lim oluvchilarda o'quv fanlari o'rtasidagi bog'lanishlarsiz tizimli va yaxlit bilimlarni shakllantirib bo'lmasligini, maktabda o'qituvchilar o'zlarining fanlariga oid muammolar bilan cheklanganligini, o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga e'tiborsizligini tanqid qiladi. N.K.Krupskaya tomonidan talqin qilingan politexnik va umumiy ta'limning uzviy aloqasi o'zini oqlamadi, natijada XX asrning 50 yillarigacha bu masala pedagogikada qo'llanilmadi. XX asrning 50 yillaridan boshlab fanlararo aloqadorlik rivojlanib qolmay, balki o'quv faoliyatiga qo'llash bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlandi.

Yu.Vaytkyavichus, N.M.Verzilin va V.M.Korsunskaya tadqiqotlarida mavzulararo aloqalarning turli tasniflari keltirilgan bo'lib: birinchi tasnif vaqtinchalik mezonga asoslangan edi ya'ni, dastlabki, qo'shma va keyingi (istiqbolli) bog'lanishlar (va boshqalar). Bunday bog'lanishlarni amaliy jihatdan joriy etish bilimlarni tizimlashtirishga yordam beradi, tegishli fanlar bo'yicha ilgari o'tilgan materiallarga tayanish va bilimlarni o'rganishda istiqbollarni aniqlash imkonini beradi.

Fanlararo aloqalar muammosiga bag'ishlangan 1973 yilgi Butunittifoq konferensiyasi materiallarida aloqalar tasnifi ikki asosda keltirilgan: bilim va faoliyat turlari bo'yicha [11].

Fanlararo bog'lanishlar: birinchi holatda o'quvchilar uchun umumlashtirilgan bilimlar tizimini; ikkinchi holatda — turdosh fanlar uchun umumiy faoliyat bo'yicha umumiy fan malakalari tizimini yaratadi.

V.N.Fedorova, N.I.Boldirev, N.K.Goncharov, T.A.Ilina hamda G.I.Shukina kabi tadqiqotchilar o'quv faoliyatida aloqadorlikni didaktik vazifa deb hisoblaydilar va fanlar orasidagi bog'liqlik bilim olishni, o'rganganlarni tushunishni va uzviylikni oshirishga xizmat qilib, qatnashuvchilar faolligini oshirib, bilim darajasini rivojlantiradi. Didaktikada fanlararo bog'lanishni sinflarga ajratishning obyektiv asosi hisoblangan o'quv fanlari tuzilmasining umumiyligidan hamda o'quv jarayoni tuzilmasidan kelib chiqib, ularning uchta asosiy, ya'ni mazmunli-axborot, operatsion-faoliyatli va tashkiliy-metodik tiplarga ajratilishi aniqlangan. O'tkazilgan tajribalar natijasida V.N.Maksimova fanlararo aloqadorlikni uch turga bo'lib o'rganishni yoqladi: fan tushunchalari, bilimlar hosil qilish jarayoni, ta'limda qo'llaniladigan usullar va vositalar asosida.[6].

1990 yillar atrofida bajarilgan tadqiqot ishlari o'rta maktabda, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda tabiiy-matematik sikl fanlarining fanlararo bog'lanishiga bag'ishlangan bo'lib, ta'lim jarayonini tabiiy va matematik fanlarni fanlararo aloqadorlikda tashkil etish, o'quvchilarda ilmiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ekanligini, darsdan tashqari mashg'ulotlarida tabiiy fanlarni aloqadorlikda o'rgatish natijasida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash bilan birga, har doim ham mustaqil egallay olmaydigan zarur ilmiy ma'lumotlarni rivojlantirilishini hamda o'qituvchini fanlararo bog'lanishga tayyorlash masalasi ko'rilganligini anglash mumkin.

A.R.Bektenyarova maktabda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani fanlararo o'qitish misolida o'quvchilar faoliyatini faollashtirish sharti sifatida tadqiqot qiladi [9]. M.I.Aliyev oliy ta'lim muassasalarida pedagogik-psixologik fanlar misolida, talabalar o'quv faoliyatini faollashtirishda, fanlararo aloqadorlikni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratadi [8]. O'quvchilarda tabiiy turkumdagi fanlardan, fanlararo aloqadorlik asosida, tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga, aqliy rivojlanishga, bilim va malakalarni tizimli egallashga, turli muammolar, vaziyatlar, hodisalarni to'la anglay olishga xizmat qiladi. Tabaqalashtirilgan tayyor bilim reproduktiv fikrlashni shakllantirsa, bilimlarni integratsiyalash ijodkorlikni rivojlantiradi.

Muhokama. Maktab o'quv predmetlari orqali o'quvchilarga atrofimizdagi olam o'rgatiladi. Olam esa yagona bo'lib, uni tashkil etuvchi narsa va hodisalar bir-biri bilan chambarchas bog'langandir. Shunga ko'ra uni o'rganuvchi predmetlar ham o'zaro bog'liq holda o'qitilishi kerak. 6-sinf fizika kursida o'rganiladigan ko'pgina mavzular, keyingi 7-sinfda o'rganiladigan kimyo kursi mavzularini tushunib olishga imkon beradi. Fizika darslarida olingan bilimlar ko'pchilik mashina va mexanizmlarning ishlash tamoyilini tushunib olishga, mehnat darslarida asboblari va dastgohlari bilan ishlashda qo'l keladi.

Biologik jarayonlarda ham fizikaviy hodisalar muhim ahamiyat kasb etadi. Fizikaning o'zini ham muvaffaqiyatli o'rganish uchun matematikani bilish kerak bo'ladi. Shunga ko'ra fanlararo bog'lanishni amalga oshirish uchun turdosh fanlarning o'qituvchilari bahamjihatlik bilan ishlashlari zarur bo'ladi.

Yurtimizda 2014-2015 o'quv yilida o'tkazilgan tajriba-sinovning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarda kompetensiyalarni bitta fan vositasida emas, balki bitta sinfda kamida 5-7 ta fanni o'qitish jarayonida shakllantirishdan iborat edi. Shunga ko'ra, fizika va matematika fanlarini o'qitishda fanlararo aloqaga katta e'tibor berilgan. Masalan, matematikadan optimallashtirilgan o'quv dasturida o'nli kasrlar mavzusi 6-sinfdan 5-sinfga ko'chirilgan.

Fanlararo aloqani amalga oshirishda quyidagi asosiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- bir nechta o'quv fanlariga tegishli bo'lgan umumiy tushunchalar, atamalar va ta'riflarni bir xil qilib tanlash va tushuntirish kerak;

- turdosh o'quv predmetlarida o'rganiladigan savollarni takroran o'rganmasdan bittasida mukammal o'rgatish lozim;

- bir o'quv fani uchun zarur bo'lgan boshqa o'quv fanida o'rganiladigan tushunchalarni o'rganishda vaqt jihatidan ketma-ketlik to'g'ri tanlanishi kerak;

- o'quvchilarda ilmiy tushunchalarni rivojlantirishda va umumlashgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishda uzviylikni ta'minlash lozim;

- aniq va tabiiy fanlardan fanlararo kompetensiyalarni hosil qilishda umumiy tushunchalarning yagona yondashuvini amalga oshirish kerak;

- tadqiqotchilarning fanlar yuzasidan olib borayotgan izlanishlarining umumiy jihatlari o'rganilishi kerak;

- aniq va tabiiy fanlarda o'rganiladigan hodisalarning o'zaro bog'liq ekanligini ko'rsatish zarur [3, 24 b].

Bizning fikrimizcha, tayanch va fanga oid kompetensiyalar fanlararo bog'lanishni hisobga olgan holda shakllantirilsa, samarasi yuqori bo'ladi. Ularni fanlararo kompetensiyalar deb atash mumkin. Masalan, fizikada: 1) fizik hodisalar va jarayonlarni kuzatish, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi; 2) tajribalar o'tkazish, fizik kattaliklarni o'lchash va xulosalar chiqarish kompetensiyasi; 3) fizik bilimlar va asboblardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyasi. Kimyoda: 1) kimyoviy jarayon, hodisalarni kuzatish, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi; 2) kimyoviy tajribalar o'tkazish va amaliyotda qo'llash kompetensiyasi [1]. Biologiyada: 1) biologik obyektlarni tanish, ularda boradigan jarayonlarni tushunish va izohlash kompetensiyasi; 2) biologik obyektlarda boradigan jarayonlarni kuzatish, tajribalar o'tkazish va xulosa qilish kompetensiyasi [1], shuningdek, matematikada algoritmik: hisoblash, tenglamalarni yechish, ifodalarni soddalashtirish, masalalarni yechish algoritmini tuza olish malakasiga ega bo'lish; hisoblash: haqiqiy sonlar ustida hisoblash, protsentlar ustida ishlash, sonlarni yaxlitlash, taqqoslash, trigonometrik almashtirishlarni qila olish, miqdorlar o'lchov birliklarini qo'llay olish, formulalar asosida hisoblash malakasiga ega bo'lish; grafik: qiymatlar jadvalini tuza olish, funksiya grafiklarini o'qiy olish, grafiklarni yasay olish, jadval asosida ifodani tuza olish, koordinatalar bilan ishlay olish, vektorlar ustida ishlash malakasiga ega bo'lish; mantiqiy: topshiriqlar ustida mantiqiy fikrlash malakasiga ega bo'lish. fanlararo ta'lim kompetensiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin [1]. Bundan ko'rinadiki, mazkur kompetensiyalarda o'xshashlik mavjud. Ularni birgalikda o'tkazish uchun integratsiyalashgan darslarni qo'llash zarur.

So'nggi yillardagi ilmiy-tadqiqot ishlarining nazariy va amaliy jihatlari: ta'lim muassasalarida o'quv fanlarini o'qitishda olamdagi real o'zaro bog'lanishlarni ko'rsatish zaruratini asoslash, fanlararo aloqadorlikning aqliy rivojlanishdagi, dunyoqarashning shakllanishidagi o'rni, bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishida ta'siriga yo'naltirilgan. Fanlararo bog'lanishlarning metodologik funksiyasi o'quvchilar tomonidan bilimlarni tizimli o'zlashtirish, o'quv fani tizimida tayyorgarlik jarayonini takomillashtirishni ta'minlaydi. Shunday qilib, o'quv materiallarini integratsiyalashga bo'lgan intilish butun dunyo va yurtimiz ta'lim tizimidagi asosiy muammolardan biridir.

Hozirgi vaqtda, maktablarda integratsiya deganda yangi innovatsion texnologiyalar, izlanishlar, o'quvchilar uchun foydali va ularning ongiga singdirishning qulay usullarini qo'llash orqali fanlarni aloqadorlikda o'qitish mahoratini tushunamiz. O'rta maktabdagi o'quv

fanlarining bir-biriga muvofiqligi har bir o'quv fanining metodikasini muvaffaqiyatli ishlab chiqishning zaruriy didaktik sharti hisoblanadi.

Ta'lim nuqtai nazaridan qaraganda, fanlararo aloqadorlik ta'lim jarayoni qatnashchilarining o'zaro hamkorlik faoliyati davomida o'rganilayotgan predmetlarning mazmuni va maqsadini yoritadi, demak:

Borliqni umumiyligiga tayangan holda olami haqidagi ongli munosabatni shakllantirishda o'quv jarayoni barcha jihatlarini orasidagi bog'liqlikni amalga oshiradi;

- noan'anaviy ta'limga asoslangan ilmiy va nazariy jihatlarini ochib, o'zaro bog'lanishni nazarda tutadi[2];

- o'quv materialining takrorlanishiga chek qo'yadi hamda o'quv vaqtini tejashga xizmat qiladi.

Natijalar. Masalalar yechishda chiziqli, kvadrat, bir necha noma'lumli tenglamalarni yechishga to'g'ri keladi. Tenglamadan noma'lum sonni topish boshlang'ich sinflarda, kvadrat tenglamalarni, tenglamalar sistemasini yechish 8-sinf matematika kursida o'rgatiladi. Kimyo, fizika va biologiya fanlari masalalarida turli tenglamalarni ishlash orqali yechimga erishiladi. Bunda o'quvchi dars jarayonida olgan bilimlarini tatbiq etish bilan birga, mustaqil fikrlashga va xayoliy tasavvurga ega bo'ladi. Koordinata to'g'ri chizig'i va unda sonlarni joylashtirish, manfiy sonlar haqida tushuncha berilishi natijasida o'quvchilarga termometrning tuzilishi va ishlash tamoyilini o'rganish imkonini beradi [3, 25 b]. Matematikada o'rganilgan yuza tushunchasi fizikada bosim tushunchasini, hajm tushunchasi esa zichlik tushunchasini o'zlashtirishga imkon beradi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar barcha masalalarning aniq yechimi topishga odatlanib qolishgan. Fizikaga doir ayrim masalalarning yechimi esa taqribiy bo'ladi. Shunga ko'ra, matematika va fizika o'qituvchilari hamkorlikda ayrim misollarni yechishda taqribiy hisoblashlarni bajarishni o'rgatishlari kerak bo'ladi. Bu esa fizikada ham ba'zi bir o'lchashlarda taqribiylikka yo'l qo'yish va u bilan bog'liq hisoblab topiladigan kattalikning taqribiy holda qiymati topilishi tushuntirilishi zarur ekanligini ko'rsatadi [3, 25 b].

Odatda masofa, yuza, hajm, burchak kattaliklari matematik kattaliklar deb yuritiladi. Negaki, matematikada bu kattaliklarning xossalari va ularni o'lchash nazariyasi ishlab chiqilgan. O'quvchilar tajribalar o'tkazishda ko'pgina o'lchash ishlarini bajaradilar. Bunda oldin matematikada mashq bajargan, uzunlikni, yuzani, hajmni, massani, tezlikni o'lchash bilan bog'liq masalalar yechgan va ayrimlarini bevosita o'lchaganliklari tufayli ushbu malakalaridan foydalanadilar.

O'lchashlarda asboblarning o'lchash aniqligi kabi tushunchani shakllantirishda ham matematik bilimlar lozimligi ko'rinadi. Fizika va matematika fanlaridan o'zaro aloqaning muhim shakllaridan biri fizik mazmundagi matematik masalalarni yechishdir. Bir paytda ham fizikaga, ham matematikaga taalluqli bo'lgan masalalarni yechish (harakatga, zichlikka doir) foydalidir. Fizika fani matematikaning arifmetik yoki algebraik ifodalari bilangina bog'lanib qolmasdan, balki geometriya bilan ham bog'liq. Jismlarning shakli to'rtburchak, kvadrat, doira, uchburchak, ko'pburchak, shar, kub, to'g'ri burchakli parallelepiped ko'rinishlarida bo'lishi mumkin. Bunda albatta ularning o'lchamlarini aniqlashda geometriyadan olingan bilimlari orqali amalga oshiriladi. Ayrim mavzularni o'rganishda fanlararo kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari mavjudligining hozirgi holati shundan iborat. Jumladan, tuproqdagi namlikni o'lchash uchun nam tuproqning massasi o'lchab olinib, so'ngra quritilgan tuproq massasi o'lchanadi va undagi suv miqdori topiladi. Bunda tarozida modda massasini o'lchashdan foydalaniladi. Ko'pgina qishloq xo'jalik ekinlarining sifatini ularning zichliklarini o'lchash orqali aniqlash mumkinligi aytiladi.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 11 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).